



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



O'ZBEKISTONDA RUS TILINING AVVALGI VA HOZIRGI O'RNI

Jahonova Gulsevar

Buxoro davlat pedagogika instituti 3- kurs talabasi.

Annotatsiya: *Mazkur maqola O'zbekistonda rus tilining ijtimoiy va ma' daniy rolini tarixiylik va zamonaviylik nuqtai nazaridan chuqur tahlil etadi. Rus tili mustaqillikdan so'ng o'zbek tilining davlat tili sifatida mavqeini yo'qotgan. Shu, bilan birga u xalqaro muloqot, ta'lim, fan va ko'p ma'daniyatli jamiyatda kommunikativ vosita sifatida o'z ahamiyatini saqlab qolmoqda.*

Kalit sózlar: *Sovet, global dunyo, SSSR, kril yozuvi, qavmlararo aloqa, Markaziy Osiyo.*

Kirish

Til- har qanday davlatning asosiy, ma' daniy va kommunikatsion vositasi hisoblanadi. U nafaqat muloqot vositasi, balki jamiyatning ma' naviy, ma' daniy, ijtimoiy va siyosiy o'zgarishlarini aks ettiruvchi vosita hisoblanadi. O'zbekistonda rus tili uzoq yillar davomida davlat boshqaruvlarda, ta'limda, kundalik muloqot jarayonida va fan sohalarida keng miqyosda foydalanib kelinmoqda. O'zbekiston batamom mustaqillikka erishgandan so'ng til siyosatida yangi tubdan o'zgarishlar bosqichi boshlanib, o'zbek tilini davlat tili sifatida ilgari surildi. Bu esa rus tilining jamiyatimizdagi o'rnini qayta ko'rib chiqishni taqazo etdi.

Asosiy qism

1. O'zbekistonda rus tilining sovet davridagi o'rne.

O'zbekistonda rus tilining keng miqyosda tarqalishi XVIII-XIX asrlardan so'ng, ya'ni Rossiya imperiyasining Markaziy Osiyo hududlariga kirib kelishidan so'ng boshlangan. Sovet hukumati tillar orasidagi muvozanatni saqlash uchun rus tilini barcha qavmlararo aloqa qilish vositasi etib tayinladi. Shu sababli Markaziy Osiyo va O'zbekiston ta'lim tizimida davlat tili etib belgilangan.

Rus tilining ushbu davrdagi o'rne dunyoqarashni shakllantirish, ilmiy va texnik yutuqlarni o'zlashtirish ko'plab O'zbekiston aholisining rus tilini puxta o'rganishiga yordam bergan. Qolaversa, maktablar, kollejlarda, turli xil oliy o'quv yurtlarida, darsliklarda kril yozuvida yozilganligi qayd etilgan.

2. Mustaqillikdan so'ng til siyosatidagi o'zgarishlar rus tilining mavzusi.

Uzoq davom etgan SSSR hukmronligidan so'ng 1991-yil O'zbekiston rasman mustaqillikka erishgandan so'ng, tubdan o'zgarishlar bo'lib o'tdi. Milliy davlatning ustuni deb o'zbek tili ta'n olindi. Bu jarayon O'zbekistonda rus tilining rasmiy maqomidan bosqichma-bosqich chekinishiga olib keldi. Davlat idoralari, ta'lim muassasalari, ommaviy axvorot va hattoki muloqotda ham o'zbek tilini kengaytirish dasturlari qabul qilindi. Ammo rus tili O'zbekistonda butunlay orqaga chekinmadi. U davlatimizga turli xil davlatlar bilan ilmiy, texnik va Xalqaro konferendiyalarda qo'llanilmoqda.

3. Hozirgi kunda rus tilining ijtimoiy va ma' daniy roli.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Hozirgi kunga kelib , O‘zbekistonda rus tilining mavqei yo‘qolib ketmagan . Rus tili davlat tili emas, lekin bu uning jamiyatdagi o‘rnini kamaytirib qo‘ymagan . Aksincha, u ko‘plab kontekstlarda, konferensiyalarda xalqaro til sifatida xizmat qilib kelmoqda. Internet va ommaviy axborot vositalarida rus tilidagi kontentning ko‘pligi, ayniqsa ilmiy, texnik va ma‘daniy yo‘nalishlardagi yangiliklar, rus tili biluvchilar uchun kengroq axborot olish imkonini beradi.

Xulosa

O‘zbekistonda rus tilining Sovet davridagi o‘rni yetakchi bo‘lgan va rus tilidan davlat boshqaruvida, fanda, ta‘lim sobalaridagi roli beqiyos bo‘lgan . O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng til siyosatida tubdan o‘zgarishlarga olib keldi. Rus tilining davlatdagi o‘rni kamaydi. O‘zbek tilining davlat tili sifatida rivojlantirish davom etmoqda, ammo rus tili ko‘p jihatdan ko‘p ma‘daniyatli va global dunyoda muloqotni osonlashtiruvchi vosita sifatida o‘z ahamiyatini saqlab qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimova, D. (2018) „ Sovet davrida Markaziy Osiyoda rus tilining roli .“Ózbek tilshunoslik jurnali ,
2. Ruzmetov, B. (2019) . „ Mustaqillik yillarida Ózbekistonda rus tilining órni “ Ózbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi axboroti.
3. Yusupov , T. Va Ergashev , S . (2021) . „ Til siyosati va ta‘limda rus tilining roli” . „ Ta‘lim va taraqqiyot”
4. Xolmatov, J. (2017) „Rus tilining O‘zbekistondagi ijtimoiy ko‘p qirraligi” . Til va xalqlararo muloqot.
5. Sattorov, N. (2022) „Ma‘daniyat va til: O‘zbekiston kontekstida” . Toshkent ma‘daniyat mashriyoti.

